



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



OZOD SHAROFIDDINOV PUBLITSISTIK MEROSINING ZAMONAVIY JURNALISTIKA TA'LIMIDAGI AHAMIYATI.

Ortiqboyeva Shahzoda Toxir qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

ortiqboyevash15@gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Ozod Sharofiddinovning jurnalistik qarashlari hamda ijodkor qanday bo'lishi lozimligi shuningdek ijodkor axli uchun tanqidiy fikrlash qanchalik muhimligi hamda O.Sharofiddinovning "Ijodni anglash baxti" maqolasining tahlili haqida so'z boradi.*

Kalit so'zi: *tanqidiy fikrlash, ijodkor, jurnalist, qalamkash, sovet, tillar, adabiyotshunos, O.Sharofiddinov.*

THE SIGNIFICANCE OF OZOD SHAROFIDDINOV'S PUBLICISTIC HERITAGE IN MODERN JOURNALISM EDUCATION

Ortiqboyeva Shahzoda Toxir qizi

Student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

ortiqboyevash15@gmail.com

Annotation: *This article discusses Ozod Sharofiddinov's journalistic views and what qualities a creative person should possess, as well as the importance of critical thinking for members of the creative community, and provides an analysis of O. Sharofiddinov's article "The Happiness of Understanding Creativity."*

Keywords: *critical thinking, creator, journalist, writer, Soviet, languages, literary scholar, O. Sharofiddinov.*

ЗНАЧЕНИЕ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ОЗОДА ШАРОФИДДИНОВА В СОВРЕМЕННОМ ЖУРНАЛИСТСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Ортиқбоева Шахзода Тохир қизи

Студентка Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

ortiqboyevash15@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматриваются журналистские взгляды Озода Шарофиддинова и то, каким должен быть творческий человек, а также значимость критического мышления для представителей творческой среды и анализ статьи О. Шарофиддинова «Счастье понимания творчества».*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Ключевые слова: критическое мышление, творец, журналист, писатель, советский, языки, литературовед, О. Шарофиддинов.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-sentabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdidagi so'zlagan nutqi davomida jurnalistlar hamisha prezident himoyasida bo'lishini ta'kidladi. "Ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Men, haqiqat va adolatni o'z e'tiqodi deb biladigan barcha jurnalistlarni — islohotlarning faol ishtirokchilari, o'zining eng yaqin do'stlarim deb bilaman va ular hamisha prezident himoyasida bo'ladi", - dedi Mirziyoyev. [1]

Ozod Sharofiddinov – nafaqat adabiyotshunos balkim u jurnalist hamdir. Sharofiddinov shunchaki jurnalist emas, dunyo ahlini uyg'onishga undagan, har bir amaldor shaxsga esa yetarlicha dars bergan inson sifatida o'quvchilar yuragidan joy olgan yetuk tanqidchi jurnalistdir. U ijodkor axlini shunday tasvirlaydi "Har qanday odamning tirikligi uchun birinchi navbatda, suv bilan havo zarur, ammo jurnalist uchun, qalamkash ijodkor uchun suv bilan havodan ko'ra ortiqroq darajada so'z erkinligi, matbuot erkinligi zarurroqdir". Ijod degani odamning fikr va hissiyot bobidagi ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish deganidir. "Qay bir sabablar bilan bu imkoniyat yo'liga g'ov qo'yilsa, ijod erkinligi cheklab qo'yilsa, ijodkor havo oladigan tuynuk turli mutasaddilar va rahbarlarning qarichi bilangina o'lchanadigan bo'lsa, ijod o'ladi. Har bir ijodkor qolipiga solinsa, o'ziga hos aytadigan gapi, uslubi bo'lmasa ularni dedom bolalariday bir-biridan farqlashni iloji bo'lmasa, bunaqa ijodkor hech kimni qiziqitirmaydi. Ma'lumki so'z erkinligi, ijod erkinligi bizda turli muxim hujjatlarda e'lon qilingan hatto matbuot haqidagi qonunda bu to'g'risida ancha chiroyli gaplar ham aytilgan. Lekin bu shunaqa murakkab masalaki uni e'lon qilishning o'zi bilan hatto hammaning qo'njiga muxr bosib beradigan idorani bekor qilish bilan ham amalga oshirish ancha qiyin. Ming qatla shukurki, bugun biz mayda vasiylikdan, qo'limizdan yosh boladek yetaklab yurishlaridan asta-sekin qutilib bormoqdamiz. Lekin baribir shu yo'l bilan ham ijodda to'la erkinlikga erishdik deb aytishimiz qiyin. [2] Ijod erkinligi xilma xil qirralarga ega bo'lgan, hayotimizning ko'pgina jihatlariga daxldor murakkab masaladir. Erkinlik masalasida so'z borar ekan, erkinlikning ham tushunchasi keng. Ba'zi qo'shtirnoq ichidagi ijodkorlar ushbu tushunchadan noto'g'ri foydalangan holda ish tutishi ba'zi ijodkor axlining erkinligini cheklab qoyishi mumkin.

Xatto sovet davrida ham insonlar erkinlikga erishish uchun harakat qilgan ammo hozirgi mustaqillik davrida shunchaki mansabdor shaxslarning bosimi ostida o'z erkinligini yo'qotayotgan ijodkor ahliga bir so'z deyish qiyin. Sobiq sovet davrida SSSR hukumati o'zbek xalqiga nisbatan shunday jumla ishlatgan: "Biz sizlarni qoy desak sizlar qoy emas ekansiz, qoy ham bazi bazida marab turadi. Sizlar baliq singarisiz og'zizni ochasiz-u ammo gapirmaysiz va bu esa bizning ishimizni yengilashtiradi". Bunday haqoratli so'zlar nafaqat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ijodkor xalqini balkim qalbida vatan tuyg‘usi bor har bir inson uchun Vatan ruhiyatini yo‘q qilishi turgan gap.

Ozod Sharofiddinov jurnalist va tanqidchi sifatida voqealarni bayon etish bilan cheklanmay, balkim ularni chuqur tahlil qilish, haqiqatni izlash va o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashni o‘zining asosiy vazifasi deb bilgan.

“Ijodni anglash baxti” O.Sharofiddinovning mazkur maqolasi samimiy tarzda yozilgan maqolalardan biri hisoblanadi. G‘ofur G‘ulomning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada uning o‘limi o‘zbek xalqini qanday katta judolikka yuz tutgani hamda ijodkorning turli xil tillarda huddi ona tilisidek so‘zlasha olishi haqida oltinga teng jumlar bayon etilgan. “Mana, men – oddiy bir o‘zbek ziyolisi, bosib o‘tgan umrim yo‘lini sarhisob qilib, hayotimdan mamnunlik tuyg‘ularni izhor etsam, umrimga shukronalar aytib, baxtiyor ekanim to‘g‘risida og‘iz to‘ldirib gapirsam, bunga bois bo‘ladigan asosiy omillardan biri G‘ofur G‘ulomdir”- deya tarflanadi[3]. Bizning boradigan maktab G.Gulomning uyidan 2 uy narida joylashgan xatto bir necha marotaba ularning uyiga ham kirib chiqqanmiz. Ko‘cha koyda ularni korgudek bolsak ikki bukilib salom berardik mobodo salomimizga alik olgudek bo‘lmasa to ular alik olguncha atrofida girdi-kapalak bo‘lardik. G.Gulom bir joyda suhbat qilgudek yoki maruza o‘qigudek bo‘lsa-yu biz buni eshitsak soatlab bo‘lsa ham ularni tinglashga tayyor bo‘lardik. G.Gulomning eng qoyil qoldiradigan tarafi esa turli xil tillarda erkin so‘zlasha olishlari edi. U rus tilini mukammal bilar, ushbu tildagi eng murakkab asarlarni ham qoyilmaqom qilib tarjima qilar olar edi.Turkiy tillarni aytmasa ham bo‘ladi. Bu shaxs Qozog‘istonga borganda huddi qozoqlarday, Ashxobotga borib qolsa Turkman bo‘lib Bishkekda esa qirg‘iz bo‘lib so‘zlar edi. Alomamizning gapirishlaridan huddi mahaliy aholi deb o‘ylashardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sputnik: Toshkent 9-sentabrdagi majlis
2. Tanlangan asarlar: 2003-yil “Muqaddas burch”
3. Tanlangan asarlar : “Ijodni anglash baxti”
4. https://mustaqillik.uz/oz/pages/Ozod_Sharafiddinov
5. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ozod-sharafiddinov-uch-maqola.html>